

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ILMIY DUNYOQARASHNI FANLARARO SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Majidova Ro'za

Guliston davlat universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annatotsiya: *Mazkur maqolamiz bugungi kunda barchani aqliy salohiyati bilan lol qoldirayotgan yosh avlodga bag'ishlanadi. Ya'ni ularni boshlang'ich sinf paytidan boshlab ilmiy dunyoqarashini to'g'ri shakllantirish uchun qanday metodlarni qo'llash, fanlaro shakllantirishda esa qanday texnologiyalardan foydalanish afzalroq, aynan shular haqida atroflicha fikr yuritimiz.*

Abstarct: *This article is dedicated to the young generation, which amazes everyone today with its intellectual potential. That is, from the time of elementary school, we will think about what methods to use to properly form their scientific outlook, and what technologies to use in interdisciplinary formation.*

Аннатоция: *Эта статья посвящена молодому поколению, которое сегодня поражает всех своим интеллектуальным потенциалом. То есть еще со времен начальной школы мы будем думать о том, какие методы использовать для правильного формирования своего научного мировоззрения, и какие технологии использовать в междисциплинарном формировании.*

Kalit so'zlar: *dunyoqarash, ilmiy dunyoqarash, integratsiya, boshlang'ich ta'lim*

Har bir davlatning taqdiri va kelajagi o'sha davlatda yashab, ulg'ayayotgan yosh avlodning qo'lida. Bizning yurtimizda yoshlarni ilmi va hunarli bo'lib voyaga yetishishlari uchun ko'plab shart-sharoitlar yaratilmoqda, tashabbuslar va loyihalar ishlab chiqilmoqda. Bularning barchasi Vatanimiz kelajagi bo'lgan yoshlarning yetuk shaxs sifatida tarbiyalanishi uchun tashalayotgan sobit qadamlar desak aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Hozirgi kunda o'quvchilarni boshlang'ich ta'limdan boshlab yaxshi bilim berish, ularda o'ziga xos bilimni, dunyoqarashni shakllantirish masalasi turadi. Bizning mazkur maqolamizda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda qo'llash mumkin bo'lgan bir qancha texnologiya va metodlar bilan tanishtirishga harakat qilamiz. Maqolamizni boshlamasdan oldin keling dastlab “Dunyoqarash”, “Ilmiy dunyoqarash” terminlariga izoh berib ketsak.

O'sib kelayotgan yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish hamma davrlarda bo'lgani kabi, hozir ham millatning ilg'or kishilari diqat markazida bo'lib kelmoqda. Xo'sh, dunyoqarashni o'zini qanday tushunish kerak?

Dunyoqarash-bizni o'rab olgan borliq nima, u qanday rivojlangan, tabiatda qanday inson o'rin tutadi, uning ongi qanday paydo bo'ldi va kamol topdi, jamiyatning yaralish tarixi qanday, inosniyat turmush darajasini qanday qilib yaxshilash mumkin va shu kabi masalalarga kishilarning turlicha qarashlari, munosabatlaridir. Inson o'z faoliyatida ma'lum ilmiy bilimlardan, qonuniyatlardan, tushuncha va g'oyalardan foydalanadi. Ana shu bilimlarga asoslanib, tabiat, jamiyat va inson tafakkuri hodisalarini baholaydi, ularni o'ziga talqin etib, ma'lum xulosalarga keladi. Ilmiy dunyoqarash xususida gap borganda avvalo, o'quvchilar,

yoshlar, unga zid, qarama-qarshi turgan diniy, fantastik, mifologik, ateistik va boshqa g'ayri ilmiy dunyoqarashlar borligi uchun ham ilmiy dunyoqarashni shakllantirish zarurligini tushunmoqlari, bu haqda to'g'ri fikr yuritishni o'rganmoqlari kerak.

Dunyoqarash o'quvchilarda o'z-o'zidan shakllanib qoladigan jarayon emas. Ilmiy dunyoqarash o'rganilgan bilim va ko'nikmalar asosida shakllanadi. Ilmiy dunyoqarash bitta yoxud ikkita fan bilan shakllanmaydii, balki barcha fanlarni o'zaro aloqadorligining hosilasi o'laroq dunyoga keladi. Shuning uchun metodika sohasiga “integratsiya” tushunchasi kirib kelgan, ya'ni fanlarni bir-biriga bog'lash orqali o'quvchiga bilim berish. Boshlang'ich sinflarda tabiiy va aniq fanlarni fanlararo o'qitishda o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirish orqali o'quv-tarbiya ishlarining sifati oshadi va ayni o'zi o'rganayotgan fanni yanada chuqurroq o'zlashtirishga sharoit yaratib beradi. O'qituvchi o'z ish faoliyatida bu bog'lanishlarni darsning mazmuniga qarab amalga oshirishi lozim. Bunday imkoniyat fanlararo yondashuv asosida ta'minlanadi. Boshlang'ich sinflarda tabiiy va aniq fanlarni fanlararo o'qitishda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o'quvchilar ongiga yangi fikr yuritishga, ma'lum bir fanni mukammal bilib olishga va fanlarga bo'lgan qiziqishini orttirishga olib keladi. O'quvchilar o'zlarining amaliy faoliyatlarida yangi dalillar, bilim va tushunchalarni o'rganadilar. Mavjud amaliy faoliyat asosida darslarda o'rganilgan yangi mavzular umumlashtiriladi. Natijada ular o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakaga aylanib boradi. boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni fanlararo aloqadorlik asosida shakllantirish o'quvchilarda tabiiy va aniq fanlarning muayyan tasnifga muvofiq berish ularda tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish omili sifatida ko'zga tashlanadi. Dars jarayonida fanlar o'rtasidagi bog'liqlik tushunchalardan foydalanish o'quvchilarda tabiiy bilimlarni o'rganishga qiziqishni yuzaga keltiradi. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni fanlararo aloqadorlik asosida shakllantirish jarayoni mazkur muammoga tizimli yondashuvni talab etadi. Shu bois tabiiy fanlarni matematika bilan fanlararo integratsiya asosida o'qitishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarda atrof-olam haqidagi tushunchalarni singdirib borish orqali ularda fanlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jarayonini takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash zaruratini keltirib chiqardi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning tabiiy fanlarni o'zlashtirishda egallayotgan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etishga zamin tayyorlaydi. Umumta'lim mazmunini shakllantirish barcha maktab fanlarini o'qitishni insoniylashtirish ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini kuchaytirishni ta'minlashga qaratilgan. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni matematika bilan fanlararo bo'glab o'qitish jamiyatimizning chuqur insonparvarlik tabiatini yorqin aks ettirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Hennessy S., Ruthven K., Brindley S. Teacher perspectives on integrating ICT into subject teaching: commitment, constraints, caution and change. *Journal of Curriculum Studies*, 2005, 37 (2)
- Sternberg R. The Nature of Creativity // *Sreativity Research Journal*, 2006, Vol. 18, No.1

- Musurmanova O. // Uzluksiz ta’lim tizimida o’qituvchilarni kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari: Resp. ilmiy-amaliy anjumani materiallari. -Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
- Аширова М.К. Развитие математических способностей учащихся на основе взаимосвязи естественно-математических дисциплин [Текст]: автореф. дисс... канд. пед. наук: 13.00.02 /М.К.Аширова. Ташкентский гос. педагогический ун-т им. Низами. - Ташкент, 2000.
- Nishonaliyev U. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari muammolari va yechimlari. // Pedagogik ta’lim. -2000.- 3- son.